

## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARNING BOLALAR RUHIYATIGA TA’SIRI

*Berdiyeva Rayhona Aslamovna*

*Samarqand viloyati Urgut  
tumani 55 -maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarining bolalar ruhiyatiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’siri, axborot oqimining psixologik xususiyatlari hamda bolalarni axborot makonida himoya qilishning muhim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, oila va ta’lim muassasalarining media madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ommaviy axborot vositalari, media, bolalar psixologiyasi, internet, ruhiy rivojlanish, axborot ta’siri, media savodxonlik, tarbiya, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik xavfsizlik.

### KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalari inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Televideniye, radio, matbuot, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali har kuni ulkan hajmdagi axborotlar tarqatiladi. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar axborot oqimining eng faol iste’molchilari hisoblanadi. Shu sababli ommaviy axborot vositalarining bolalar ruhiyatiga ta’sirini o‘rganish muhim psixologik masalalardan biridir. Bolalar psixikasi hali to‘liq shakllanmaganligi sababli ular axborotlarni kattalarga nisbatan boshqacharoq qabul qiladilar. Ko‘rilgan yoki eshitilgan ma’lumotlar bolalarning dunyoqarashi, xulq-atvori va hissiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lmaganligi sababli uni haqiqat sifatida qabul qilishlari mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining ijobiy jihatlari ham mavjud. Ular bolalarning bilim doirasini kengaytiradi, dunyo haqidagi tasavvurlarini boyitadi va ta’lim olish imkoniyatlarini oshiradi. Turli ilmiy, madaniy va ma’rifiy dasturlar bolalarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim platformalari va elektron resurslar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq axborot vositalarining salbiy ta’sirlari ham mavjud. Zo‘ravonlik, agressiya, yolg‘on axborotlar va axloqiy me’yorlarga zid bo‘lgan materiallar bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday axborotlar natijasida qo‘rquv, xavotir, agressiv xulq-atvor yoki hissiy beqarorlik yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi ham bolalar psixologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual muloqotning ortishi ayrim hollarda real ijtimoiy

munosabatlarning kamayishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, internetdagi salbiy izohlar, kiberbulling va zararli kontentlar bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Psixologlar bolalarni axborot makonidagi salbiy ta'sirlardan himoya qilishda media savodxonlikni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydilar. Media savodxonlik bolalarga axborotlarni tanqidiy baholash, ularning ishonchliligini tekshirish va zararli ma'lumotlarni ajrata olish imkonini beradi. Ota-onalar va pedagoglarning roli bu borada alohida ahamiyatga ega. Ular bolalarning axborot iste'molini nazorat qilishlari, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishlari va foydali media mahsulotlarni tanlashga yordam berishlari lozim. Eng muhimi, bolalar bilan ochiq muloqot o'rnatish va ularning qiziqishlariga befarq bo'lmaslik zarur.

Ta'lim muassasalarida media madaniyat va axborot xavfsizligi bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilishi, trening va seminarlar tashkil etilishi o'quvchilarning axborot muhitiga moslashuvini yaxshilaydi. Bu esa yoshlarning ongli va mas'uliyatli axborot iste'molchisi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan OAV orqali amalga oshiriladigan ta'sirning ikki qirrali mohiyati mavjud: bir tomondan, bu ta'sir ijtimoiy ongni sog'lomlashtirish, axborot ehtiyojlarini qondirish va jamiyatda ma'naviy-axloqiy yuksalishni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin; boshqa tomondan esa, u ongni boshqarish, xatti-harakatni nazorat qilish va muayyan g'oyalarni majburlab singdirish vositasiga ham aylanishi ehtimoldan holi emas. Aynan shu nuqtada OAV tomonidan amalga oshirilayotgan psixologik ta'sirning legitim xizmat ko'rsatishdan manipulyativ boshqaruvga o'tish chegarasi nazariy jihatdan chuqur tahlil etilishi zarur bo'lgan masalaga aylanadi. Ushbu maqolada OAVning psixologik ta'sir ko'rsatish mexanizmlari, bu ta'sirning ijtimoiy-pedagogik va sotsiopsixologik xususiyatlari, shuningdek, axloqiy-me'yoriy mezonlar nuqtai nazaridan xizmat va manipulyatsiya o'rtasidagi tafovutlar nazariy asoslar doirasida tahlil etiladi. Shu bilan birga, zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalarida kuzatilayotgan real amaliy tendensiyalar ilmiy konsepsiyalar asosida baholanadi hamda OAVning shaxs va jamiyatga ko'rsatgan ta'sirining chegaralari ijtimoiy-psixologik kontekstda izohlanadi.

Ommaviy axborot vositalarining (OAV) psixologik ta'siri masalasi zamonaviy ijtimoiypsixologik va kommunikativ tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan. OAV inson ongiga ta'sir ko'rsatishning murakkab tizimini shakllantirib, shaxsiy qarashlar, qadriyatlar tizimi, motivatsion strukturasi hamda axloqiy ong rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu ta'sirning ikki qirrali tabiati — axborot xizmati ko'rsatish va manipulyativ boshqaruv — zamonaviy jamiyatda psixologik mustaqillik, avtonomiya va axborot xavfsizligi tushunchalari bilan bevosita bog'liqdir.

K. Levinning maydon nazariyasiga ko'ra, har qanday inson xatti-harakatining sabablari uning psixologik maydonida yotadi. OAV esa ushbu psixologik maydonni

tashqi axborot oqimlari orqali deformatsiyaga uchratadi, bu esa individual qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining selektiv taqdimot (framing) strategiyasi shaxsda voqelikni ongli qayta interpretatsiya qilishga majburiy asos yaratadi. Shuningdek, J. Habermasning "ijtimoiy kommunikatsiyaning muloqotga asoslangan modeli" doirasida OAVning ta'siri kommunikativ faoliyatning ideal sharoitlari bilan solishtirilganda manipulyatsiyaning yuzaga chiqishini aniqlash imkonini beradi. Habermasga ko'ra, axborot uzatish jarayonida erkinlik, ochiqlik va mantiqiy asos muhim axloqiy mezonlardir. Ammo zamonaviy OAV ko'pincha ushbu mezonlardan chekinib, ta'sirchanlik, hissiyotga urg'u berish va stereotipik shakllantirish (priming) orqali auditoriyani boshqarish usullaridan foydalanadi.

R. Cialdini tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy ta'sir strategiyalari, xususan "muvofiglik" va "avtoritetga bo'ysunish" prinsiplari OAV manipulyatsion vosita sifatida qanday ishlashini chuqur tushuntiradi. Masalan, mashhur shaxslarning fikrlarini doimiy takrorlash yoki statistik ko'rsatkichlar orqali auditoriyaga psixologik bosim o'tkazish – bu shaxsiy qarorlarni sun'iy shakllantirish usulidir.

OAVning ta'sirini tushuntirishda Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, insonlar axloqiy va ijtimoiy me'yorlarni kuzatish, takrorlash va mustahkamlash orqali o'zlashtiradi. Bugungi raqamli axborot muhitida esa yoshlar va o'smirlar virtual makondagi "model shaxslar" — blogerlar, mashhurlar, trend yaratuvchilar orqali ijtimoiy-psixologik identifikatsiyani boshdan kechiradilar. Bu esa real hayotdagi qadriyatlar tizimining o'zgarishiga olib keladi. Shuningdek, Eli Pariser tomonidan ishlab chiqilgan "filtr pufagi" (filter bubble) nazariyasiga binoan, algoritmik tanlovlar asosida foydalanuvchilarga faqat ularning qiziqishlariga mos axborot uzatiladi. Bu jarayon individning axborot makonini sun'iy ravishda toraytiradi, alternativ fikr va ijtimoiy muvozanatni susaytiradi, natijada shaxs manipulyatsiyalovchi axborot doirasida doimiy yashashga o'rganib qoladi. Bu esa kritik tafakkur va mustaqil fikrlash jarayonlarini zaiflashtiradi. Ayniqsa, kognitiv dissonans nazariyasi (L. Festinger) asosida OAV tomonidan beriladigan zid axborotlar shaxs ichki psixologik ziddiyat holatiga tushishiga sabab bo'ladi. Bu holatda inson o'z ongini moslashtirish uchun mavjud axborotdan ruhiy qulaylikka mosini tanlaydi, bu esa manipulyatsiyaning bevosita natijasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, zamonaviy sotsiopsixologik yondashuvlar, xususan, U.

Lippmanning "jamoatchilik fikrining stereotiplashuvi" g'oyasi ham OAV tomonidan yaratilgan sun'iy ijtimoiy realliklar tasvirini chuqur izohlaydi. OAV inson ongida mavjud bo'lmagan ijtimoiy voqelikni konstruksiyalash orqali individning real

hayotga bo‘lgan munosabatini yo‘naltiradi. Ayniqsa, siyosiy voqealarni yoritishda bu fenomen yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bular ning barchasi OAVning axborot uzatuvchidan ko‘ra ongni shakllantiruvchi kuch sifatidagi funksiyasini anglatadi. Mazkur holatda xizmat ko‘rsatish va manipulyatsiya o‘rtasidagi chiziq nihoyatda nozik va shaffof bo‘lib, u ko‘proq subyektiv niyat, axloqiy mezonlar va kommunikatsiya kontekstiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham, zamonaviy psixologik tadqiqotlarda bu masalani nafaqat axborot texnologiyalari, balki ijtimoiy ong, axloqiy o‘zlik va shaxsiy identifikatsiya nuqtai nazaridan yondashgan holda kompleks tahlil qilish zarurati tug‘ilmoqda. Ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali psixologik ta’sir ko‘rsatish zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning murakkab kommunikativ tizimida inson ongni shakllantiruvchi strategik mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, axborot uzatuvchi subyektning maqsadi va qo‘llanilayotgan kommunikativ vositalar OAVning xizmat ko‘rsatish va manipulyatsiya sifatidagi funksiyalarini belgilaydi hamda ushbu nozik chegarani aniqlash jarayonida nazariy konsepsiyalarning chuqur tahlili muhim rol o‘ynaydi. K. Levinning maydon nazariyasi va L. Festingering kognitiv dissonans konsepsiyasi doirasida OAVning inson psixologik maydonini qayta konstruksiya qilishi, shuningdek, axborot ziddiyatlari orqali individning tanlov imkoniyatlarini manipulyatsiya ostida shakllantirishi aniqlashtirildi. J. Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi manipulyativ boshqaruv va axborot xizmati o‘rtasidagi farqni aniqlashda axloqiy-me’yoriy mezonlar asosida baholash zarurligini ko‘rsatadi. R. Cialdini va A. Bandura nazariyalaridan kelib chiqib, jamiyatni psixologik boshqarishning asosiy strategiyalari — muvofiqlik, avtoritetga bo‘ysunish va ijtimoiy o‘rganish — orqali sun’iy identifikatsiya jarayonlari vujudga kelishi isbotlandi. Bundan tashqari, E. Pariserning "filtr pufagi" nazariyasi va U. Lippmanning "stereotiplashuv" kontsepsiyasi raqamli axborot muhitida individning kritik tafakkur salohiyatini toraytiruvchi omillarni aniqlaydi. Bu holat shaxs ongining dinamikasida noan’anaviy muvozanatsizliklarni yuzaga keltirib, jamiyatda informatsion xavfsizlikka doir muhim ehtiyoj va xavotirlarni paydo qiladi. OAV tomonidan ma’lumotning selektiv taqdim etilishi, framing va priming kabi manipulyativ strategiyalardan foydalanish shaxsiy dunyoqarashga bevosita ta’sir ko‘rsatib, obyektivlik va axborot neytralligi prinsiplariga tahdid soladi. Demak, OAVning psixologik ta’sir kuchi va uning xizmat ko‘rsatish hamda manipulyatsiya chizig‘i o‘rtasidagi tafovutni aniqlash, bir tomondan, shaxsiy va ijtimoiy ongni himoya qilish, ikkinchi tomondan esa, axborot xizmati samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni nazariy jihatdan chuqur tadqiq etish orqali raqamli kommunikatsiya muhitida shaxsiy identitetni saqlash hamda ijtimoiy qadriyatlarning barqarorligini ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

1. Axborot siyosatini takomillashtirish: OAV faoliyatida axborot neytralligi, shaffoflik va axloqiy-me'yoriy tamoyillarni qat'iy nazoratga olish orqali manipulyativ usullarning cheklanishi ta'minlanishi lozim. Bu borada regulativ-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish va ularning amaliy nazoratini kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega.
2. Mediamadaniyat va kritik tafakkurni rivojlantirish: Auditoriyaning mediamadaniyat darajasini oshirish maqsadida interaktiv psixologik treninglar, ma'rifiy loyihalar va ta'lim dasturlari orqali shaxsiy kritik tafakkur va media savodxonligini rivojlantirish talab etiladi. Bu shaxsni manipulyativ axborot oqimidan himoya qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.
3. Algoritmik shaffoflikni ta'minlash: Raqamli platformalardagi selektiv axborot yetkazish (filter bubble) ga qarshi algoritmik shaffoflikni oshirish zarur. Foydalanuvchilarga algoritmlarning ishlash mexanizmlari haqida ma'lumot berish va alternativ axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali psixologik inertlik holatining oldi olinishi mumkin.
4. OAV xodimlari uchun psixologik-kommunikativ maxsus tayyorgarlik: Axborot uzatuvchi subyektlar, xususan, jurnalistlar va kontent yaratuvchilar uchun psixologik-kommunikativ treninglar tashkil etish, ularni professional etika va manipulyativ ta'sir natijalari to'g'risida xabardor qilish orqali ijtimoiy ongni boshqarishda mas'uliyatni oshirish talab etiladi.
5. Ijtimoiy monitoring va tadqiqotlar: OAV orqali berilayotgan axborot oqimining psixologik ta'sir ko'lamini muntazam monitoring qilish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularning natijalari asosida zarur ijtimoiy strategiyalar ishlab chiqish jamiyat axborot xavfsizligini ta'minlashda samarali choradir.

Mazkur tavsiyalar asosida OAVning psixologik ta'sir mexanizmlarini tartibga solish va manipulyativ usullarning oldini olish orqali shaxs va jamiyatning ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari bolalar ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. Ularning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish va salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun oila, maktab va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bolalarning sog'lom psixologik rivojlanishi va ma'naviy barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nishonada Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2019.

3. Shoumarov G'.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.
4. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.

